

ZAMONAVIY AXLOQ TARBIYASI: YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR

*Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti
O'simliklarni Himoya qilish fakulteti
Tuproq bonitrova va yer resusrlaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi
3-85-gurux Talabasi
Komiljonova Zuxra Komiljon qizi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamnaviy axloq tarbiyasi yutug'lari va kamchiliklari mavzusi yoritilgan. Ma`naviy tamoyil inson huquqlarining asosini tashkil etib, u insonning mustaqil tanlagan maqsadga erishish yo`lidagi faoliyatida erkinlik va farovonlikka bo`lgan teng huquqini belgilaydi. Avvalo, iqtisodiy va siyosiy darajada globallashuv ayrim yirik trans va multinatsional korporatsiyalar manfaatigagina xizmat qiluvchi tizimdir. Unda qashshoq davlatlarga beg`araz yordam berish, biror davlat yoki xalq farovonligi uchun xizmat qilish kabi maqsadlar bo`lmaydi.

Kalit so`zlar: zamnaviy axloq, axloq, globallashuv, kognitiv va ijtimoiy ta`lim, axloqiy xilma-xillik.

MODERN MORAL EDUCATION: ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS

Abstract

This article covers the topic of achievements and shortcomings of modern moral education. The moral principle is the basis of human rights, and it determines the equal right of a person to freedom and well-being in his activities towards achieving the goals of his own choosing. First of all, at the economic and political level, globalization is a system that only serves the interests of some large trans and multinational corporations. It will not have goals such as helping poor countries, serving the welfare of a country or people.

Key words: modern ethics, morality, globalization, cognitive and social education, moral diversity.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli inqilob davrida inson axloqi ham dinamik o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu jarayonda axloqiy qadriyatlar, odob-axloq me'yirlari va ularni shakllantirishning pedagogik yondashuvlari zamnaviylik ruhida qayta ko'rib chiqilmoqda. Mazkur maqolada zamnaviy axloq tarbiyasining yutuqlari hamda u bilan bog'liq ayrim kamchiliklar muhokama qilinadi.

Inson huquqlari me`yorlarini belgilashda huquqning ma`naviy va axloqiy jihatlari tobora ko`proq o`rin egallab bormoqda. Inson huquqlari mazmun doirasiga talab va majburiyat tushunchalari kiritilmoqda. Bu tushunchalarning konseptual aloqadorligi inson huquqlarining bosh tarkibiy asoslarini aniqroq idrok etilayotganidan dalolat beradi. Ma`naviy tamoyil inson huquqlarining asosini tashkil etib, u insonning mustaqil tanlagan maqsadga erishish yo`lidagi faoliyatida erkinlik va farovonlikka bo`lgan teng huquqini belgilaydi. Avvalo, iqtisodiy va siyosiy darajada globallashuv ayrim yirik trans va multinatsional korporatsiyalar manfaatigagina xizmat qiluvchi tizimdir. Unda qashshoq davlatlarga beg`araz yordam berish, biror davlat yoki xalq farovonligi uchun xizmat qilish kabi maqsadlar bo`lmaydi. Ularga iste'mol qilish quvvatiga ega mijozlar bo`lsa bas. Agar birov globallashuv yo`liga to`g`anoq bo`lsa, undaylar shafqatsizlarcha jazolanadi. Tizim shu darajada yaxshi ishlayaptiki, globallashuv qobig`ida o`z manfaatlari uchun ishlovchi davlat va iqtisodiy guruhlar yer yuzasidagi har bir tirik jonni o`z maslaklariga ishontira oladi. Bugun dunyodagi gegemon davlatlarning xalqaro maydonda «xalqlar ozodligi» uchun olib borayotgan urushlari aslida bir necha bankir, moliya guruhlari va transnatsional korporatsiyalar buyurtmasi bilan olib borilayotgan ishlardir.

Ma`naviy va xususiy darajada globallashuv insonni quruq iste'molchiga aylantiradi: baxt moddiy farovonlik bilan belgilanadi. Yashashdan maqsad maksimal darajada hayotdan lazzatlanishdangina iborat bo`ladi. Bu yerda ruhiy-ma`naviy qadriyatlarga, ezhulik, savob, birovga beg`raz yaxshilik qilish kabi oliy tushunchalarga o`rin yo`q. «Birovga zararing yetmasa bas, istaganingni qilishing mumkin». Bu aqida qolipsiz demokratiya qobig`ida yanada chiroyli va adolatli ko`rinadi. Shu o`rinda oddiy bir mantiq yuzaga chiqadi. Mana shunday aqida bilan kun kechirayotgan insonlar «tepa»lariga ham o`zları kabi odam o`tirishini istaydi.

Axloq tarbiyasining zamonaviy yutuqlari. Zamonaviy texnologiyalar axloq tarbiyasiga ko`plab imkoniyatlarni olib keldi. Masalan, internet orqali bolalar va yoshlarga dunyoning turli burchaklaridagi axloqiy qadriyatlar haqida ma'lumot berish, masofaviy ta'lim orqali axloqiy masalalarni keng muhokama qilish imkoniyati mavjud. Interaktiv ta'lim vositalari axloqiy savollar va javoblar shaklida axloq tarbiyasini qiziqarli va mazmunli qilishga yordam beradi.

Axloqiy xilma-xillikni qabul qilish. Globallashuv sababli turli madaniyatlar va axloqiy tushunchalarning birlashishi kuzatilmoqda. Bu axloq tarbiyasida tolerantlik, boshqa millat va diniy qadriyatlarni hurmat qilish kabi qadriyatlarni kiritish imkonini beradi. Bu xilma-xillikning qadrlanishi va yosh avlodga toleranslikni o`rgatish zamonaviy axloq tarbiyasining muhim yutuqlaridan biridir.

Kognitiv va ijtimoiy-emotsional ta'lim. Zamonaviy psixologiya va pedagogika tadqiqotlari axloqiy tarbiyada kognitiv va ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarning ahamiyatini ko`rsatmoqda. Yangi metodikalar, masalan, empatiya, o`zini boshqarish

va o‘zaro muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘quvchilarga axloqiy qaror qabul qilish va javobgarlik hissini shakllantirish ko‘mak beradi.

Zamonaviy axloq tarbiyasining kamchiliklari. Bugungi kunda axloq tarbiyasi virtual platformalarga kuchli bog‘lanib qoldi. Onlayn muloqot bolalarning real muloqot qobiliyatlarini pasaytirishi, xayrixohlik, shaxsiy hurmat kabi qadriyatlarni susaytirishi mumkin. Natijada, ko‘plab yoshlarda axloqiy tushunchalar yuzaki bo‘lib, empatiya va hissiy bog‘lanish yetishmasligi kuzatiladi.

Axloqiy mezonlarning tez o‘zgarishi. Zamonaviy jamiyatda axloqiy me’yorlar va qadriyatlар tez-tez o‘zgaradi. Yoshlar uchun yetakchi bo‘lgan ko‘plab axloqiy mezonlar turg‘un emas, bu esa ularning axloqiy barqarorlik va shaxsiy tamoyillarini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Axloqiy muammolarni yuzaki yondashish. Ko‘pgina zamonaviy axloqiy yondashuvlar axloqiy muammolarni chuqur tahlil qilishdan ko‘ra, ularning yuzaki taraflariga urg‘u beradi. Masalan, ayrim reklama va ommaviy axborot vositalari axloqiy qadriyatlarni yuzaki ifodalash, faqat tashqi qiyofa va ommaboplrikka asoslangan qoidalarga urg‘u beradi. Bu esa yoshlarning chuqur axloqiy tafakkur va qaror qabul qilish qobiliyatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Xulosa

Zamonaviy axloq tarbiyasi bir qator yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, ba’zi muhim kamchiliklarga ham ega. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun texnologiyalar va zamonaviy usullardan oqilona foydalanish, qadriyatlар tizimida barqarorlikni saqlash, shuningdek, yoshlarga chuqur axloqiy tahlil va qaror qabul qilish imkoniyatini yaratish muhimdir. Faqat shundagina zamonaviy axloq tarbiyasi samarali va maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Печчеи А. Человеческие качества. – М.: Прогресс, 1980. – С. 5
- Qurbanova M “Globallashuv jarayonlari va g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik masalalari” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021-yil may. 107-109-bet.
- Мухамеджанова, Лалихон Ашуралиевна (2019) «РОЛЬ НРАВСТВЕННОСТИ В ОБЩЕСТВЕННОМ СОЗНАНИИ», Научный вестник Наманганского государственного университета : Вып. 1: Вып. 9 , статья 17.
- Agzamova Nilyufar Shukhratovna, Mukhamedzhanova Lalikhon Ashuralievna, Kadyrova Dilbar Salikhovna. (2021). Conspirological Theories of Origin Pandemic COVID-19 Ethical Issues in Dealing with the Pandemic. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6250